

NORMA IJODKORLIGI JARAYONINI AXBOROT BILAN TA'MINLASH TUSHUNCHASI

Sodikov Akmal Shavkat o'g'li

yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori TDYU,

Davlat va huquq nazariyasi, kafedrası katta o'qituvchisi

akmalsodikov81@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada norma ijodkorligi jarayonini axborot bilan ta'minlash tushunchasi, mohiyati hamda uning o'ziga xos xususiyatlari tahlil etiladi. Norma ijodkorligi jarayonida foydalaniladigan axborot, norma ijodkorligi jarayonini axborot bilan ta'minlash tushunchalariga berilgan ilmiy qarashlar o'rganilgan holda milliy qonunchilikda axborotga qo'yilgan talablarini ishlab chiqish masalasi muhokama etiladi. Shuningdek, norma ijodkorligi jarayonining shakli, turi va bosqichlaridan qat'i nazar barcha turdagi axborotlar dolzarb ahamiyatga ega bo'lib, normativ-huquqiy hujjatlarning hayotchanligi, barqarorligi, tartibga solish ta'siri samaradorligini belgilashda alohida e'tiborga loyiq tadqiq etiladi. Axborot ta'minoti normativ tartibga solishda muayyan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish mexanizmining oqilona, samarador va normativ-huquqiy hujjatlarning keng jamoatchilik tomonidan qanday kutib olinishiga ham ta'sir o'tkazishi e'tirof etiladi.

Kalit so'zlar: axborot, norma ijodkorligi, norma ijodkorligini axborot bilan ta'minlash, norma ijodkorligi jarayonida foydalaniladigan axborot, axborot ta'minoti, axborotga qo'yilgan talablar.

THE CONCEPT OF PROVIDING RULE-MAKING PROCESS WITH INFORMATION

Sodikov Akmal Shavkat ugli

Doctor of Philosophy in Law Senior Lecturer of the department ,

Theory of State and Law, TSUL

akmalsodikov81@gmail.com

Abstract

This article analyzes the concept, essence and specifics of providing rule-making process with information. The issue of developing requirements for information in national legislation will be discussed by studying the scientific views on the information applied in rule-making process and the concept of providing rule-making process with information. It also examines the relevance of all types of information, regardless of the form, type, and stage of rule-making process and the importance of normative legal acts in determining viability, sustainability, and regulatory impact. It is recognized that information supply in the normative regulation and the

mechanism of regulation of certain social relations affects the rational and effective perception by the general public.

Keywords: information, rule-making, providing rule-making process with information, information used in rule-making process, information supply, information quality.

ПОНЯТИЕ ИНФОРМАЦИОННОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ НОРМОТВОРЧЕСКОГО ПРОЦЕССА

Содиков Акмал Шавкат угли

доктор философии по юридическим наукам

Старший преподаватель кафедры

Теория государства и права, ТГЮУ

akmalsodikov81@gmail.com

Аннотация. В статье анализируются понятие, сущность и особенности информационного обеспечения нормотворческого процесса. Вопрос разработки требований к информации в национальном законодательстве будет обсуждаться путем изучения научных взглядов на информацию, применяемую в нормотворческом процессе, и концепции обеспечения нормотворческого процесса информацией. Также рассматривается актуальность всех видов информации независимо от формы, вида и стадии нормотворческого процесса и значение нормативных правовых актов в определении жизнеспособности, устойчивости и регулирующего воздействия. Признано, что информационное обеспечение в нормативном регулировании и механизме регулирования тех или иных общественных отношений влияет на их рациональное и эффективное восприятие широкой общественностью.

Ключевые слова: информация, нормотворчество, обеспечение нормотворческого процесса информацией, информация, используемая в нормотворческом процессе, информационное обеспечение, качество информации.

Xalqaro “Access Info in Europe” tashkilotining “Qaror qabul qilishda oshkoralik, yuqori hisobdorlik, axborot olishga bo‘lgan huquq uchun kurashish” bo‘yicha 2018 – 2021 yillar strategiyasiga ko‘ra, “zaif qonunlar” mavjudligining asosiy sababi sifatida norma ijodkorligi jarayonini axborot bilan ta’minlashda turli to‘siqlarning mavjudligi e’tirof etiladi [1, 7-8-b.]. Tabiiyki, norma ijodkorligi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda katta ahamiyatga ega bo‘lib, bunda axborot bilan ta’minlash samaradorligi, axborotning sifati, turlari, norma ijodkorligi jarayonida foydalaniladigan axborotga qo‘yilgan talablar hamda axborot bilan ta’minlashning maqbul vositalarini ilmiy nuqtayi nazardan tahlil etishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev bu borada ilmiy yondashuv va ilg‘or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini jadal joriy etish lozimligini ta’kidlab o‘tgan [2].

Shuningdek, M.K.Najimov norma ijodkorligi jarayonining ilmiy-metodologik asoslari aniq va qat'iy ishlab chiqilmaganligi bu boradagi islohotlarning samarali kechishiga to'sqinlik qilishini qayd etib o'tadi [3, 85-b.].

Zero, globallashuv, axborot almashinuvining integratsion dinamikasi, ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal sur'atlarda rivojlanishi norma ijodkorligi jarayonini axborot bilan ta'minlash bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishni taqozo etmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, 2021-yil 25-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Qonunchilik muammolari va parlament tadqiqotlari instituti tomonidan "Parlament faoliyatini ilmiy va axborot-tahliliy jihatdan ta'minlashning dolzarb masalalari" mavzusidagi xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi [4]. Mazkur konferensiya va shu kabi boshqa ilmiy anjumanlarda turli olim va mutaxassislarning norma ijodkorligi jarayoni samaradorligini oshirish bo'yicha

fikr-mulohazalarida axborot ta'minoti, uning har tomonlama asoslantirilgan bo'lishi, ilmiy va axborot-tahliliy ma'lumotlar bilan boyitish masalasiga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda.

Shu sababli "norma ijodkorligi jarayonini axborot bilan ta'minlash" tushunchasini konseptual, ilmiy-metodologik jihatdan o'rganish, tahlil etish mazkur maqolaning dastlabki vazifalaridan biri hisoblanadi. O'rganishlar shuni ko'rsatdiki, mazkur tushunchaga milliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlarida hamda O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida bevosita ta'rif berilmagan.

Mazkur tushuncha milliy qonunchilik hujjatlarida ham norma ijodkorligi jarayoniga aloqador monografik tadqiqot ishlarida ham keltirib o'tilmagan. Xususan, P.A.Rustamov O'zbekiston Respublikasida qonun ijodkorligi faoliyatini ilmiy axborot bilan ta'minlash masalasi bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borganligiga qaramasdan [5], "norma ijodkorligi jarayonini axborot bilan ta'minlash" tushunchasiga to'xtalib o'tmagan.

Shu tufayli, norma ijodkorligi o'z ichiga qanday jarayonlarni qamrab olishi, "axborot" hamda "norma ijodkorligi jarayonida foydalaniladigan axborot" kabilarga to'xtalib o'tish orqali "norma ijodkorligi jarayonini axborot bilan ta'minlash" tushunchasiga mualliflik ta'rifini ishlab chiqishni lozim deb topdik.

So'nggi yillarda norma ijodkorligi mavzusida ilmiy daraja olish uchun yozilgan dissertatsiyalarda, xususan A.A.Xo'janazarov (2021-yil) [6, 24-b.] hamda S.A.Sultanovalarning (2021-yil) [7, 21-b.] ilmiy ishlarida "norma ijodkorligi" tushunchasiga mualliflik ta'riflari berilgan. Biz esa ushbu maqolada yana bir bor mazkur tushunchani to'g'ridan-to'g'ri tahlil etish emas, balki norma ijodkorligi qanday jarayonlarni qamrab olishi, uni ilmiy tadqiq etish, axborot almashinuvi dinamikasiga asosiy e'tiborimizni qaratishni maqsadga muvofiq, deb hisobladik.

Birinchi navbatda, xorijiy olimlarning ilmiy ishlariga diqqatimizni qaratib, so'ngra milliy huquqshunos olimlarning konseptual yondashuvlariga to'xtalib o'tamiz.

AQShlik olim M.P.Carey norma ijodkorligi (rulemaking) jarayoni federal idoralar tomonidan normalarni ishlab chiqish, o'zgartish va qo'shimchalar kiritish hamda ularni bekor qilishni [8, 1-b.], B.Dooling normalarni ishlab chiqish va joriy etishni [9, 895-b.], T.Garvey [10, 5-b.] va J.S.Lubberslar mazkur jarayon "xabar va izoh" (*notice and comment*) tizimidan kelib chiqib, normativ-huquqiy hujjat loyihasini jamoatchilikka e'lon qilish, jamoatchilikning taklif va tavsiyalarini to'plash hamda normativ-huquqiy hujjatni qabul qilish jarayonlarini qamrab olishini qayd etishadi [11].

AQShlik olimlarning fikr-mulohazalari norma ijodkorligi jarayonining tarkibini muayyan darajada ochib berishga qaratilgan bo'lsada, bunda norma ijodkorligining ko'plab bosqich, daraja va tartib-taomillari inobatga olinmaganligini kuzatish mumkin.

Rossiya Federatsiyasi olimlaridan Y.N.Yarmonova norma ijodkorligi jarayoni yangi huquq normalarni ishlab chiqish va tasdiqlash [12, 2-b.], S.I.Girko vakolatli subyektlar tomonidan amalga oshiriladigan yuridik jarayonlar [13, 43-b.], G.S.Skachkova normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish jarayoni [14, 60-b.], Yu.G.Arzasov normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish, loyihani tasdiqlash, turli ekspertizalardan o'tkazish, normativ-huquqiy hujjat loyihasini qabul qilish hamda e'lon qilish [15, 27-b.], Y.Y.Tonkov va K.Y.Pavlovalar esa qonunchilik tashabbusini amalga oshirish, ko'rib chiqish, qabul qilish, imzolash, rasmiy nashr etish va kuchga kirishi kabi jarayonlarni qamrab olishini ta'kidlashadi [16, 155-b.].

Fikrimizcha, Rossiya Federatsiyasi olimlari tomonidan bildirilgan norma ijodkorligi jarayonining tarkibini tahlil etishda ayrim holatlarga e'tibor qaratib o'tilmaganligi kuzatiladi. Jumladan, normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish uchun zaruriy axborot to'plash, loyiha bo'yicha takliflarni ishlab chiqish, tartibga solish ta'sirini baholash hamda jamoatchilik va mutaxassislar muhokamasidan o'tkazish kabilar keltirib o'tilmaganligini kuzatish mumkin. Milliy huquqshunos olimlardan M.K.Najimov norma ijodkorligi faoliyati quyidagi tarkibiy jarayonlarni o'z ichiga olishini ilgari suradi: normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish tashabbusi, loyihani ishlab chiqish, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida jamoatchilik muhokamasidan o'tkazish, loyihani yuridik xizmat tomonidan huquqiy ekspertizadan o'tkazish, loyihani manfaatdor organlar va tashkilotlar bilan kelishish, loyihani adliya organlarida huquqiy ekspertizadan o'tkazish, normativ-huquqiy hujjatni qabul qilish, tarqatish, normativ-huquqiy hujjatning ijrosi ustidan nazoratni tashkil qilish [17, 18-b.].

Sh.Ruzinazarov va S.Inoyatovalar norma ijodkorligi jarayonini normativ-huquqiy hujjatni qabul qilish, unga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, bekor qilish hamda monitoringini amalga oshirishni keltirib o'tishadi [18, 6-b.].

Respublikamiz olimlarining tadqiqotlarida ham bu boradagi yakdil va kompleks yondashuvni uchratish qiyin. Chunki, normativ-huquqiy hujjatga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, albatta, tegishli normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqishni taqozo etadi. Shuningdek, normativ-huquqiy hujjatning ijrosi ustidan nazoratni tashkil qilish ham, fikrimizcha, norma ijodkorligi jarayonining tarkibiy qismi sifatida qaralishi mumkin emas. Chunki bu masala

to'g'ridan-to'g'ri norma ijodkorligi bilan emas, balki uning ijrosi bo'yicha yuridik amaliyot va huquqni qo'llash munosabatlarini keltirib chiqaradi.

Yuqorida nomlari qayd etilgan olimlarning yondashuvlari norma ijodkorligi jarayonini tor ma'noda tushunishga olib kelishi, mazkur jarayonlarni tegishli axborot bilan ta'minlash hamda har bir jarayon natijasida zaruriy axborot olish, axborotni qayta ishlash masalalarini e'tibordan chetda qolishiga sabab bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, axborot bilan ta'minlash nuqtayi nazaridan norma ijodkorligi jarayoni quyidagilardan iborat ekanligi to'g'risidagi xulosaga kelish mumkin:

normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish uchun zarur axborot to'plash, loyiha bo'yicha takliflarni ishlab chiqish, loyihani ishlab chiqishni rejalashtirish, tashkiliy-texnik ta'minlash, loyihaga ilova qilinadigan axborot-tahliliy materiallarni tayyorlash, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlashni tashabbus qilish, ishlab chiqish, loyihani huquqiy va boshqa ekspertizalardan o'tkazish, tartibga solish ta'sirini baholash, loyihani manfaatdor organlar bilan kelishish, jamoatchilik, mutaxassislar muhokamasidan o'tkazish, normativ-huquqiy hujjatni qabul qilish, ma'qullash, tasdiqlash hamda e'lon qilish kabi jarayonlarini qamrab oladi.

Ushbu maqolada norma ijodkorligi jarayonini axborot bilan ta'minlash masalasi aynan yuqorida qayd etilgan jarayonlarda axborot almashinuviga bog'liq ilmiy-nazariy masalalarni muhokama etiladi.

Axborot bilan ta'minlash nuqtayi nazaridan norma ijodkorligi jarayonining tarkibiy qismlari haqida xulosaga kelgach, shu o'rinda, "axborot" va "norma ijodkorligi jarayonida foydalaniladigan axborot" tushunchasi tahliliga e'tibor qaratamiz.

Kuzatishlar shuni ko'rsatmoqdaki, milliy ensiklopedik lug'atlarda axborot tushunchasi – "ma'lumot" so'zi bilan ifoda etilmoqda va bu borada ilmiy bahsga sabab bo'luvchi boshqa asosni keltirish shart emas. Qomusiy adabiyotlarda axborot tushunchasi "biron voqea haqidagi batafsil xabar, ma'lumot [19, 812-b.]", O'zbek tilining izohli lug'atida esa "axborot – ish, voqea-hodisalar haqida tushuncha beruvchi xabar, ma'lumot" [20, 119-b.] sifatida keltirib o'tiladi.

O'zbekiston yuridik ensiklopediyasida axborot tushunchasiga ta'rif berilmagan bo'lsada, unda "axborot resurslari" tushunchasi keltirib o'tilgan [21, 35-b.]. Bunda "Axborotlashtirish to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasining Qonunidan iqtibos keltirish bilan kifoyalanadi.

Shu o'rinda, mazkur masala yuzasidan O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga e'tiborimizni qaratib o'tamiz. Norma ijodkorligi jarayonini bevosita tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar axborot bilan ta'minlash masalasi normativ-huquqiy hujjat loyihasiga ilova qilinadigan axborot-tahliliy materiallarni nazarda tutadi. Norma ijodkorligi jarayonini bevosita tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlarida "axborot", "norma ijodkorligi jarayonida foydalaniladigan axborot" hamda "norma ijodkorligi jarayonini axborot bilan ta'minlash" tushunchalariga to'xtalib o'tilmagan. Fikrimizcha, bu holatda normativ-huquqiy

hujjat loyihasida aks etgan axborot nazardan chetda qolishi, loyiha sifatiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiluvchi omillar e'tiborsiz qoldirilishiga olib keladi.

“Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida” gi O'zbekiston Respublikasi Qonunning 21-moddasida [22], “Qonunlar loyihalarini tayyorlash va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to'g'risida” gi Qonunning 9-moddasida [23] norma ijodkorligi subyektlari tomonidan normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqishda zaruriy material va axborot to'plash masalasi qayd etilsada, aynan axborot bilan ta'minlash alohida bosqich sifatida e'tirof etilmagan. Bundan tashqari, norma ijodkorligini tartibga soluvchi boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, ularda ham norma ijodkorligi subyektlarini axborot bilan ta'minlash jarayoniga alohida to'xtalib, tegishli nazariy-konseptual tushunchalar qayd etilmagan.

Kuzatishlarga ko'ra, norma ijodkorligi jarayonini tartibga solishga bevosita qaratilmagan normativ-huquqiy hujjatlarda muayyan ma'nodagi ta'riflarni uchratish mumkin. Xususan, “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida” gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 3-moddasida [24], O'zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to'g'risida” gi Qonunining 3-moddasida “axborotlashtirish”, “axborot resursi”, “axborot resurslarining yoki axborot tizimlarining mulkdori”, “axborot resurslarining yoki axborot tizimlarining egasi”, “axborot texnologiyasi” hamda “axborot tizimi” kabi tushunchalarga ta'rif berilib [25], axborot tushunchasi keltirilmagan. “Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida” gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 4-moddasida [26] axborot tushunchasiga yaqin bo'lgan boshqa tushuncha “axborot mahsuloti” ga ta'rif berilgan [27].

Fikrimizcha, milliy qonunchilik hujjatlarimizda, avvalo, norma ijodkorligi subyektlari uchun taqdim etiladigan axborot, axborot bilan ta'minlash, axborot bilan ta'minlovchi subyekt, axborotga qo'yilgan talablar kabi masalalar bo'yicha alohida konseptual tushunchalarni ishlab chiqish lozim.

Shuning uchun ham, ilmiy-nazariy jihatdan mazkur tushunchalarni tahlil etish ilmiy yondashuvlarni ko'rib chiqishni taqozo etadi. Xususan, milliy huquqshunos olimlar tomonidan “axborot” tushunchasi turli yondashuvlar asosida uning ayrim jihatlari yoritib berilgan.

M.A.Axmedshayeva hamda I.V.Kudryavsevlar [28] prognostik axborot va axborot-tahliliy materiallarning ahamiyati, X.S.Xayitov [29] ekspert-tahlil axboroti nuqtayi nazaridan o'ziga xos yondashuvlarni yoritib berishga erishgan.

So'nggi yillarda amalga oshirilgan tadqiqot ishlarida, xususan, S.A.Sadikov tomonidan “axborot muhiti” va “davlatning axborot funksiyasi” kabi tushunchalariga mualliflik ta'riflari berilganligiga qaramasdan [30, 20-21-b.], tadqiqotchi aynan “axborot” tushunchasiga to'xtalib o'tmagan.

Ammo axborot tushunchasi bevosita ayrim olimlar tomonidan tadqiq etilgan bo'lib, jumladan A.A.Amanovning fikricha, axborot – bu tarqatish, uzatish, yetkazish, qayta ishlash kabi amallarni bajara olish mumkin bo'lgan, obyektiv, aniq, yaxlit, to'liq holda jamiyat

boshqaruvida, hamda inson bilan jamiyatni bog'lab turishda asosiy xizmat qiluvchi xabar, bilim, biron-bir ish holati yoki vaziyati, faoliyati hamda shart-sharoiti to'g'risidagi ma'lumotdir [31, 22-b.].

Fikrimizcha, tadqiqotchining ta'rifi keng qamrovligi bilan ajralib turgan bo'lsada, unda axborot tushunchasi hamda unga qo'yilgan talab va mezonlar umumlashtirilganligi kuzatiladi. Qayd etish joizki, axborot tushunchasi va unga qo'yiladigan talablar alohida tahlil etilishi zarur.

A.Q.Xudoyberdiyev esa, o'z navbatida, axborot tushunchasiga tahlilning yakuniy natijasi, to'plangan ma'lumotlar asosida yangi ma'lumotni shakllantirish mahsuli [32, 123-b.], X.T.Mamatov axborot tushunchasiga ikki yo'nalishda – “axborot kundalik hayotda u yoki bu narsa haqidagi xabar, ilmiy va huquqiy doirada o'rganilayotgan, saqlanayotgan, qayta ishlanayotgan obyekt to'g'risidagi ma'lumot” sifatida yondashib o'tishgan [33, 11-b.]. Shuningdek, huquqshunoslar tomonidan axborotning asosiy belgilari tahlil etilib, axborot ijtimoiy hayotning muhim komponenti ya'ni nomoddiy ne'mat, ma'naviy nuqtayi nazardan ta'sir o'tkazishi mumkin bo'lgan obyekt, keng miqdorda tarqatish, ko'paytirish va qayta ishlash imkoniyatiga ega obyekt sifatida ham uning yuridik tabiatini tadqiq etadi [34, 20-21-b.].

Shuningdek, P.A.Rustamov “axborot – atrof-muhitdagi hodisa va obyektlar to'g'risidagi ma'lumot” sifatida mualliflik ta'rifi ishlab chiqqan [35, 96-b.].

“Axborot” tushunchasi bo'yicha ilmiy tadqiqotlarning tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, yuqorida nomlari qayd etilgan milliy huquqshunos olimlar axborot tushunchasiga umumiy, ijtimoiy ma'noda yondashganliklari uning aynan norma ijodkorligida foydalaniladigan axborot sifatida qabul qilishga muvofiq kelmasligini kuzatish mumkin.

Bu borada xorijiy huquqshunos olimlarning fikrlariga e'tiborimizni qaratib, E.Borghetto va M.Giulianilar norma ijodkorligi jarayonining suratini axborot almashinuvi bilan uzviy bog'liq ekanligini [36, 4-6-b.], X.Klüver, I.Sagarzazular esa belgilangan vazifalarni bajarish nuqtayi nazaridan axborot almashinuvini keltirib chiqarishini ta'kidlab o'tadilar [37].

Fikrimizcha, norma ijodkorligi jarayonida axborot almashinuvini faqat belgilangan vazifalar bilan cheklab qo'yish mazkur faoliyatning mazmun-mohiyatini to'laqonli ochib bera olmaydi. Milliy va xorijiy olimlar tomonidan “axborot” tushunchasiga berilgan ta'rif va ilmiy yondashuvlarni tahlil etish orqali “axborot” tushunchasiga quyidagi mualliflik ta'rifini taklif etish mumkin:

“Axborot – bu qabul qilish, saqlash, qayta ishlash va uzatish kabi amallarni bajara olish mumkin bo'lgan shaxslar, predmetlar, faktlar, voqea-hodisa va jarayonlar to'g'risidagi ma'lumotdir”.

Shunday qilib, bilvosita tahlil etilgan ilmiy tadqiqotlar, nazariy yondashuvlar, olimlarning fikr-mulohazalaridan kelib chiqib, respublikamiz ilmiy tadqiqotlarda e'tibor qaratilmagan hamda mualliflik ta'rifi berilmagan “norma ijodkorligi jarayonida foydalaniladigan axborot”

tushunchasiga tor ma'noda mualliflik ta'rifini quyidagi shaklda ishlab chiqishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

“norma ijodkorligi jarayonida foydalaniladigan axborot – normativ-huquqiy hujjat loyihasi yoki axborot-tahliliy materiallarda aks ettiriladigan, manbalari va taqdim etilish shaklidan qat'i nazar shaxslar, predmetlar, faktlar, voqealar, hodisalar va jarayonlar to'g'risidagi tizimlashtirilgan ma'lumotlar majmuyidir”.

Keng ma'noda esa “norma ijodkorligi jarayonida foydalaniladigan axborot – moddiy, dasturiy, kriptografik, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yoki boshqa vositalar yordamida shakllantirish, qabul qilish, topshirish, hisobga olish, qayta ishlash, saqlash, to'plash, tizimlashtirish, yangilash, tarqatish, foydalanish yoki xavfsizligini ta'minlash kabi amallarni bajarish imkoniyati mavjud bo'lgan ma'lumotlar tizimi” hisoblanadi.

Keyingi navbatda, mazkur maqola doirasidagi tushunchalar tahlilini “norma ijodkorligi jarayonini axborot bilan ta'minlash” tushunchasi bilan davom ettirish maqsadga muvofiq. Zero, mazkur tushuncha ilmiy tadqiqot mavzusining markaziy o'rnini tashkil etadi. Ta'kidlash joizki, axborot bilan ta'minlash jarayoni bu axborot resurslarini shakllantirish va ulardan foydalanish asosida axborot ehtiyojlarini qondirish uchun maqbul sharoitlarni yaratishning tashkiliy ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnik jarayoni hisoblanadi.

B.K.Karipov norma ijodkorligi jarayonini axborot bilan ta'minlash bo'yicha yondashuvi “norma ijodkorligini axborotlashtirish” tushunchasi bilan bog'lab, normativ-huquqiy hujjat loyihasini tayyorlashda axborotlashtirish, huquqiy ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish jarayonlarini o'z ichiga olishini ta'kidlaydi [38, 212-b.].

A.A.Arnautova norma ijodkorligi jarayonida zarur bo'lgan axborotlarni qayta ishlashda avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanish lozimligini [39, 39-b.], Ye.V.Skurko bu boradagi ta'minlash masalalariga axborotni yig'ish, qayta ishlash, saqlash, qidirish, tarqatish, qonun ijodkorligi jarayonida bilvosita va bevosita ishtirok etuvchi subyektlarning axborotga bo'lgan ehtiyojini qondirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni kiritish zarurligini qayd etib o'tishadi [40, 9-b.].

Bizning nazarimizda, axborot bilan ta'minlashda ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish chora-tadbirlari bilan cheklanib qolmasdan bunda axborotning ishonchliligini tekshirish, axborot bazalarini yaratish va boshqa shu kabi boshqa chora-tadbirlarni qamrab olishini unutmaslik zarur.

Albatta, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ijtimoiy hayotning barcha sohalariga kirib kelishi kuzatilmoqda, biroq norma ijodkorligi jarayonida axborot bilan ta'minlashni mazkur vositalar asosida amalga oshirilishi shubha ostida qoladi. Chunki aksariyat holatlarda axborot bilan ta'minlash vositalari moddiy yoki jismoniy xarakterga ega bo'ladi.

Shuningdek, norma ijodkorligini axborot bilan ta'minlash mazkur jarayonda foydalaniladigan axborot ustida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan amallar hamda uning tashkiliy xususiyati bilan uzviy bog'liqlikni hosil etadi, deb hisoblaymiz.

Yuqorida keltirib o'tilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib, norma ijodkorligi jarayonini axborot bilan ta'minlash tushunchasiga mualliflik ta'rifini quyidagi shaklda ishlab chiqishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

“norma ijodkorligi jarayonini axborot bilan ta'minlash – norma ijodkorligi uchun zarur bo'lgan axborotni turli vositalar yordamida shakllantirish, qabul qilish, topshirish, hisobga olish, qayta ishlash, saqlash, to'plash, tizimlashtirish, yangilash, tarqatish, foydalanish yoki xavfsizligini ta'minlash imkoniyatini yaratishning tashkiliy, huquqiy va ilmiy-texnikaviy jarayondir”.

Shunday qilib, norma ijodkorligi jarayonini axborot bilan ta'minlash bo'yicha qonunchilik tizimida belgilab qo'yilgan axborotga qo'yilgan talablarni ishlab chiqish, samarali axborot almashinuvi muhitini yaratish, zamon talablariga mos keladigan tashkiliy-huquqiy mexanizmini shakllantirish va bu borada samaradorlikni oshirish hamda qonunchilikni takomillashtirish masalalari ilmiy jihatdan o'rganilishi zarur bo'lgan dolzarb masalalardan biridir.

Shu sababli, axborot, norma ijodkorligi jarayonida foydalaniladigan axborot, norma ijodkorligi jarayonini axborot bilan ta'minlash tushunchalariga ilmiy qarashlarni inobatga olgan holda ularni milliy qonunchilikda mustahkamlash, axborotga qo'yilgan talablarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Bir so'z bilan aytganda, axborot ta'minoti, norma ijodkorligi subyektlari, axborot bilan ta'minlovchi subyekt va boshqa tushunchalarni alohida ilmiy-huquqiy tadqiqotlar olib borish, ularning natijalarini normativ-huquqiy hujjatlarda aks ettirishni taqozo etadi.

Muxtasar qilganda, norma ijodkorligi jarayonining shakli, turi va bosqichlaridan qat'i nazar barcha turdagi axborotlar dolzarb ahamiyatga ega bo'lib, normativ-huquqiy hujjatlarning hayotchanligi, barqarorligi, tartibga solish ta'siri samaradorligini belgilab berishi mumkin. Axborotning ahamiyati xalq irodasini normativ-huquqiy hujjatlarda aks ettirishga katta ta'sir ko'rsatishi bilan baholanadi. Axborot ta'minoti normativ tartibga solishda muayyan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish mexanizmining oqilona, samarador va normativ-huquqiy hujjatlarning keng jamoatchilik tomonidan qanday kutib olinishiga ham turtki bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Access Info Strategy 2018-2021 of Access Info Europe. – Madrid, 2018. – P. 7-8. // <https://www.access-info.org/wp-content/uploads/AIE-Strategy-2018-2021-FINAL.pdf> – Official webpage of Access Info in Europe (“Access Info in Europe” халқаро ташкилотининг расмий веб-саҳифаси).
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси (28.12.2018) // <https://president.uz/uz/lists/view/2228>
3. Нажимов М.К. Норма иждоккорлиги жараёнини такомиллаштириш – давлат-ҳуқуқий ислохотларнинг муҳим йўналиши // Юридик фанлар ахборотномаси. – Т.: ТДЮУ, 2019. – №2. – Б. 85-88.

4. Qarang: Парламент фаолиятини илмий ва ахборот-таҳлилий жиҳатдан таъминлашнинг долзарб масалалари. Халқаро конференция материаллари // Масъул муҳаррир: Ф.Х.Отахонов. – Т.: ҚМПТИ, 2021. – 301 б.
5. Qarang: Рустамов П.А. Научно-информационное обеспечение законодательной деятельности в Республике Узбекистан. Диссертация к.ю.н.: 12.00.01. – Т.: ТГЮИ, 2001. – 149 с.
6. Хўжаназаров А.А. Адлия органларининг норма ижодкорлиги фаолиятини такомиллаштириш. 12.00.02 – ю.ф.ф.д. (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. – Т.: ТДЮУ, 2021. – 143 б.
7. Султанова С.А. Теоретико-правовые вопросы применения модели «Умное регулирование» в нормотворчестве. 12.00.01 – диссертация на соискание ученой степени д.ф.п. (PhD). – Т.: ТГЮУ, 2021. – 184 с.
8. Carey M.P. The federal rulemaking process: an overview // USA Congressional Research Service 7-5700, www.crs.gov, RL32240. CRS Report for Congress Prepared for Members and Committees of Congress. – Washington: CRS, (June 17, 2013). – 34 p.
9. Dooling B.C.E. Legal issues in e-rulemaking // Administrative Law Review. – Washington: George Mason University, 2011. Vol. 63. – No. 4. – P. 893-932.
10. Garvey T. A brief overview of rulemaking and judicial review // USA Congressional Research Service 7-5700, www.crs.gov, R41546. CRS Report for Congress Prepared for Members and Committees of Congress. – Washington, March 27, 2017. – 17 p.
11. Qarang: Lubbers J.S. A survey of federal agency rulemakers' attitudes about e-rulemaking // Administrative Law Review. – Washington: American University Washington College of Law, 2010. Vol. 62. – No. 2. – P. 451-486.
12. Ярмонова Е.Н. Отличие нормотворчества от правотворчества как одна из основных проблем юриспруденции // Научно-методический электронный журнал «Концепт», 2016. – №S16. – С. 1-7.
13. Гирько С.И. Нормотворчество как специализация сотрудников правовых подразделений // НПЖ «Диалог», 2018. – №2 (11). – С. 40-46.
14. Скачкова Г.С. Профессия «норморайтер» и трудовое право // Норморайтер как профессия: материалы дискуссии. – Москва: РГ-Пресс, 2019. – 352 с.
15. Арзамасов Ю.Г. Нормография: теория и технология нормотворчества // – М.: Юрайт, 2017. – 460 с.
16. Тонков Е.Е., Павлова К.Е. Нормотворческая деятельность органов внутренних дел: понятие и сущность // Nomothetika: Философия. Социология. Право, 2016. – №3 (224). – С. 153-159.
17. Нажимов М.К. Норма ижодкорлиги. – Т.: ТДЮУ, 2018. – 181 б.
18. Рузиназаров Ш., Иноятова С. Научное стратегическое прогнозирование законотворчества в частноправовой сфере: современные реалии и ориентиры //

- Обзор законодательства Узбекистана научно аналитический журнал. – Т.: ТГЮУ, 2017. – №3. – С. 5-8.
19. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси А ҳарфи қисми. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2013. – Б. 812.
20. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 8000 га яқин сўз ва сўз бирикмаси. Жилд I. А–Д // Масъул муҳаррир Мадвалиев А. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2020. – Б. 119.
21. Ўзбекистон юридик энциклопедияси // Нашр учун масъул Муҳитдинов Р.А. ва бошқ.; масъул муҳаррир Тойчиев Н. – Т.: Адолат, 2010. – Б. 35.
22. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 20.04.2021 й., 03/21/682/0354-сон.
23. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 10.08.2020 й., 03/20/631/1153-сон.
24. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 19.04.2018 й., 03/18/476/1087-сон.
25. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 30.03.2021 й., 03/21/679/0256-сон.
26. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 11.09.2019 й., 03/19/566/3734-сон.
27. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 26.01.2022 й., 03/22/747/0064-сон.
28. Qarang: Ахмедшаева М.А., Кудрявцев И.В. Қонун ижодкорлик жараёнини прогнозлаштиришнинг айрим назарий-ҳуқуқий ва ташкилий масалалари. – Т.: ProAcademy, 2018. – №1. – Б. 19-24.
29. Qarang: Хайитов Х.С. Қонун ижодкорлиги экспертлик таъминоти: миллий ва хорижий тажриба // Юридик фанлар ахборотномаси. – Т.: ТДЮУ, 2018. – №2. – Б. 14-19.
30. Садиқов С.А. Ўзбекистон Республикасида “электрон ҳукумат” тизими ҳуқуқий асосларининг шаклланиши ва ривожланиши // 12.00.01 – ю.ф.ф.д. (PhD) диссертацияси автореферати. – Т.: ТДЮУ, 2020. – 57 б.
31. Аманов А.А. Ахборот хизмати кўрсатишни фуқаролик-ҳуқуқий тартибга солишни такомиллаштириш // 12.00.03 – ю.ф.ф.д. (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. – Т.: ИИВ Академияси, 2018. – Б. 22.
32. Худойбердиев А.Қ. Ҳуқуқ ижодкорлиги фаолиятини социологик ва эксперт-таҳлилий таъминлашни такомиллаштириш // 12.00.01. – ю.ф.д. (DSc) илмий даражасини олиш учун диссертация. – Т.: ИИВ Академияси, 2020. – 258 б.
33. Маматов Х.Т. Ўзбекистон Республикасида фуқароларнинг ахборотга бўлган ҳуқуқларини амалга оширишнинг конституциявий-ҳуқуқий асослари // 12.00.02. ю.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Т.: ТДЮИ, 2009. – 164 б.
34. Маматов Х.Т. Ўзбекистон Республикасида фуқароларнинг ахборотга бўлган ҳуқуқларини амалга оширишнинг конституциявий ҳуқуқий асослари // 12.00.02 – ю.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. – Т.: СамДУ, 2009. – Б. 20-21.

35. Рустамов П.А. Научно-информационное обеспечение законодательной деятельности в Республике Узбекистан // Диссертация к.ю.н.: 12.00.01. – Т.: ТГЮИ, 2001. – 149 с.
36. Qarang: Borghetto E., Giuliani M. The pace of the legislative process: A diachronic analysis of the Italian legislature (1996–2006) // Società Italiana di Scienza politica. 2008. – P. 4-6.
37. Qarang: Klüver H., Sagarzazu I. Setting the Agenda or Responding to Voters? Political Parties, Voters and issue attention // West European Politics. 2016. – №39(2). – P. 380-398.
38. Карыпов Б.К. Информатизация и цифровизация правотворческой деятельности в Киргизской Республике // Бюллетень науки и практики. 2020. – №8. – С. 210-215.
39. Арнаутова А.А. Цифровизация правотворческой деятельности // «Век качества», 2019. – № 2. – С. 32-42.
40. Скурко Е.В. Информационно-правовое обеспечение законодательной деятельности в Российской Федерации // Диссертация к.ю.н.: 12.00.01. – М.: РГБ, 2003. – 131 с.

